

TA'LIM MUASSASALARIDA INKLYUZIV TA'LIMNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK XUSUSIYATI

Muzaffarova Xayitgul

JDPU maxsus pedagogika kafedrasи p.f.f.d (PhD)

Shokirova Sitora Otabek qizi

Maxsus pedagogika, Defektologiya (Logopediya) mutaxassisligi 1- bosqich magistranti

Annotasiya: Maqolada O‘zbekistonda inkluyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish, hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha asosiy ustuvor vazifalarni amalga oshirish yoritilgan

Kalit so‘zlar. Alohiba ta’limga muhtoj bolalar, inklyuziv ta’lim, maxsus o‘qituvchi, jismoniy, aqliy, sezgi, aqliy nuqsonli bolalar.

Abstract: The article covers the development of inclusive education in Uzbekistan, the improvement of the education system for children with special educational needs, and the implementation of the main priority tasks for improving the quality of educational services provided to them.

Keywords. *Children in need of special education, inclusive education, special teacher, children with physical, mental, sensory, intellectual disabilities.*

O‘zbekistonda alohida ta’limga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni rivojlantirishga qaratilgan hujjatlarni tasdiqladi. Jumladan, umumta’lim maktablarida alohida ta’limga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarni ochish tartiblari belgilandi. Hujjat O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2020 yil 13 oktabrdagi «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan. Qabul qilingan qaror 2020–2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasiga O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha quyidagi asosiy ustuvor vazifalarni nazarda tutadi:

- alohida ta’limga muhtoj bolalar o‘qiydigan ta’lim muassasalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
 - ushbu ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, o‘quv qurollari, turli kasblar bo‘yicha o‘qitish uchun moddiy-texnik baza va jihozlar bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
 - inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, ta’lim muassasalarini maxsus asbob-uskunalar bilan (yuk ko‘tarish moslamalari, panduslar, panjara va boshqalar).

shuningdek, tegishli xodimlar bilan ta'minlash (maxsus o'qituvchilar, bolalarni psixologik-pedagogik nazorat qilish bo'yicha mutaxassislar);

• alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning moslashuvi va integratsiyalashuvi uchun maktab-internatlarni maxsus jihozlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash va boshqalar¹⁵.

Qaror bilan umumiy ta'lim muassasalarida alohida ta'limga muhtoj bolalarni inklyuziv o'qitish to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. U quyidagilarni nazarda tutadi:

• inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari;

• maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tuzatish sinflarini tashkil etish tartibi va alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun o'quv jarayoni;

• bolalarni inklyuziv ta'lim va boshlang'ich asosiy tuzatish sinflariga qabul qilish tartibi;

• inklyuziv ta'lim va boshlang'ich asosiy tuzatish sinflarida ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar.

Bundan tashqari:

• jismoniy, aqliy, hissiy yoki aqliy nuqsonli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari;

• sanatoriy-kurort tipidagi ixtisoslashtirilgan ta'lim davlat muassasalari;

• jismoniy, aqliy, sezgi yoki aqliy nuqsonli bolalar, shuningdek, uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun yakka tartibda uyda ta'lim olish tartibi to'g'risidagi nizom ham tasdiqlandi.

Inklyuziv bo'limning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

maktabgacha va maktab ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlanishi va yanada yuksaltirish bo'yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni va logopediya shoxobchalarini tashkil etish va muvofiqlashtirish.

maktabgacha va maktablarda inklyuziv ta'lim, defektologik xizmatni takomillashtirish, o'qituvchi-logopedlar, maxsus pedagoglarni metodik qo'llab-quvvatlash va professional rivojlantirishga ko'maklashish;

umumta'lim muassasalarida inklyuziv o'quv muhitini yaratish maqsadida bolalar va ularning ota-onalari, o'qituvchilarga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatishda zamonaviy yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqish;

inklyuziv ta'limni yanada rivojlanishini nazarda tutadigan davlat dasturlari va boshqa dasturlar, shuningdek, ularni amalga oshirish mexanizmlari bo'yicha rahbariyatga ko'rib chiqish uchun takliflar kiritish;

umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim uchun shart-sharoitlar yaratishni nazorat qilish, inklyuziv ta'lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini nazorat qilish;¹⁶

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoevning 13.10.2020 yildagi «Alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori

inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan umumta’lim muassasalari, ularda ta’lim olayotgan o‘quvchilar to‘g‘risida ma’lumotlar bazasini yaratish va uni doimiy yangilab borish;

inklyuziv sharoitlarda ta’lim oluvchilar, umumta’lim muassasalari qoshidagi logopediya shoxobchalarining o‘qituvchi-logopedlar uchun psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish va ijtimoiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish;

inklyuziv ta’lim va umumta’lim muassasalari qoshidagi logopediya shoxobchalarini metodik ta’minotini (dasturlar, rahbar, pedagog va mutaxassislarga metodik tavsiyalar va boshqalarni) ishlab chiqish hamda takomillashtirib borish;

umumta’lim muassasalari qoshidagi logopediya shoxobchalari, inklyuziv ta’lim bo‘yicha o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ilg‘or milliy va xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda, mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga mos ravishda ishlab chiqish, takomillashtirish, tajriba-sinovdan o‘tkazish hamda amaliyotga joriy etish;

inklyuziv ta’lim ishtirokchilari va umumta’lim muassasalari qoshidagi logopediya shoxobchalarining o‘qituvchi-logopedlar faoliyatini rivojlantirish maqsadida konferensiya, o‘quv-seminarlarni tashkil etish va o‘tkazish;

inklyuziv ta’lim ishtirokchilari va umumiyo‘rta ta’lim muassasalari qoshida tashkil etilgan logopediya shoxobchalarining o‘qituvchi-logopedlarini faoliyatini muvofiqlashtirish, monitoringini olib borish va metodik rahbarlikni amalga oshirish¹⁷.

Xulosa qiladigan bo‘lsak inklyuziv ta’limda yangi fikrlarning talqin etilishi milliy islohot va maxsus yordamga muhtoj bolalar, yoshlari uchun istiqbolli dasturlarda aniq aks etishi lozim. Maxsus ehtiyojlar ta’limi umumiyo‘rta ta’lim tizimining bir qismidir. U jamiyat va mutaxassislar salohiyati, ularning munosabatlari, moliyaviy resurslarni tasimlash va o‘qitish, o‘qituvchilar va muktab faoliyati borasidagi savollar bilan o‘zaro bog‘liqdir. Ta’limni rivojlantirish uchun umumiyo‘rta ta’lim tizimiga tarkibiy o‘zgartirishlar kiritish muhimdir. An‘anaviy ta’lim va maxsus ta’lim o‘rtasidagi to‘sqliar olib tashlanishi kerak. Maxsus ta’lim oddiy ta’limning bir qismi bo‘lishiga qaramasdan, o‘zining o‘quvchilari, o‘qituvchilari, boshqaruv jamoasi va ta’minot tizimidan tashkil topgan ikkita ta’lim tizimi amalda qo‘llanib kelinmoqda. Barcha o‘quvchilarning talablariga javob beruvchi inklyuziv maktabda bunday tizimga ehtiyoj qolmaydi. Islohotlar ta’lim maqsadlarining amaliyotini boshqarishi mumkin, lekin ular pedagogik amaliyotini to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqara olmaydi. Shu sababdan ta’lim samarali bo‘lishi uchun islohotlar yaxshi muhokama qilinishi hamda ta’lim tizimi boshqaruvchilari va uni amalda qo‘llovchilar tomonidan ko‘rib chiqilishi kerak.

¹⁶ Shomahmudova R.Sh. Maxsus va inklyuziv ta’lim. Xalqaro va milliy tajribalar. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent. “Chashma print” 2011. -213 b

¹⁷ Muzaffarova X.N. Inklyuziv ta’limning muammolari va istiqbollari// Xalq ta’limi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali 2014 yil 3 son

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoevning 13.10.2020 yildagi «Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4860-son qarori.
2. Muzaffarova X.N. Inklyuziv ta’limning muammolari va istiqbollari// Xalq ta’limi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali 2014 yil 3 son
3. Muzaffarova X.N., Tursunqulova O. Inklyuziv ta’limni amaliyatga joriy qilish masalalari// zamonaviy taraqqiyotda ilm-fan va madaniyatning o‘rni nomli respublika ilmiy amaliy konferentsiyasi 20.06. 2021yil
4. Shomahmudova R.Sh. Maxsus va inklyuziv ta’lim. Xalqaro va milliy tajribalar.Uslubiy qo’llanma.Toshkent. “Chashma print” 2011. -213 b